



**LEKSOSEMALARDA ZAMONIYLIK: TIL
TARAQQIYOTINING SEMANTIK KO‘ZGUSI**

No‘monova Nazokat Anvar qizi

Guliston davlat universiteti
Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada leksosemalarning zamoniylig xususiyati til taraqqiyotining muhim semantik ko‘rsatkichi sifatida tahlil qilinadi. Unda leksemalarning zamonaviy va zamondosh qatlamlarga ajralishi, ularning o‘ziga xos belgilar hamda qo‘llanish doirasi ilmiy asosda izohlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarning semantik tuzilishi jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarni aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, neologizm mohiyati, ularning til tizimidagi o‘rni hamda shakllanish jarayonlari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** leksema, semantik o‘zgarish, zamonaviylig, so‘z, leksosemema, zamoniylig, til taraqqiyoti, neologizm, arxaizm.*

Har qanday til – jonli va dinamik tizimdir. Til – inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining eng muhim ifoda vositasidir. U doim harakatda bo‘lgan tizim sifatida vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, boyiydi va yangilanadi. Shu jarayonda tilning asosiy birliklaridan biri bo‘lgan leksosemalar ham zamon ta‘sirida turli o‘zgarishlarga uchraydi. Leksosemema – bu so‘zning leksik-semantik variantlaridan biri, ya‘ni ma‘lum bir kontekstda amalga oshuvchi konkret ma‘no. Masalan, “tarmoq” so‘zi bir leksosememada **“xo‘jalik tarmog‘i”**, ikkinchi leksosememada **“kompyuter tarmog‘i”** ma‘nosini anglatadi. Aynan shu ikkinchi ma‘noning paydo bo‘lishi zamonaviyligning yaqqol ifodasidir.



Bu jarayon esa tez va uzil-kesil sodir bo‘lmaydi. Leksosememalar zamoniylig jihatidan ikki qatlamga bo‘linadi:

- 1) zamonaviy qatlam;
- 2) zamondosh qatlam.

Zamonaviy qatlamga bugungi til va nutq jarayonida keng qo‘llanayotgan leksemalar kiritiladi. Ushbu qatlamdagi leksemalar bir asosiy talabga javob berishi kerak bo‘lib, shu qatlam egalariga ham tanish bo‘lib bir vaqtning o‘zida nutqida qo‘llanilmasligi ham mumkin. Odatda, har bir sohaning terminalogiyasi shu sohaning vakiliga tanish bo‘ladi, boshqalar bu termini bilish zarurati bo‘lmaydi shunga qaramay terminlar zamonaviy qatlamga tegishli bo‘laveradi. Xususan, tibbiyot xodimlarigagina tegishli bo‘lgan zamonaviy qatlam so‘zlar mavjud. Masalan, diagnostika (kasalliklarni aniqlash jarayoni), robotik jarrohlik (robotlar yordamida amalga oshiriladigan jarrohlik amaliyoti), biopsiya (kasallikni aniqlash uchun to‘qimadan namuna olish usuli), skrining (kasallikni erta aniqlash uchun ommaviy tibbiy tekshiruv), lazer terapiya (lazer yordamida davolash usuli) shu kabi so‘zlar bir vaqtning o‘zida ham zamonaviy, shuning bilan birga, umumnutqda keng qo‘llanishga moyil emasligi bilan farqlanadi. Zamonaviy qatlam so‘zlarda na yangilik va na eskilik bo‘yog‘i bo‘lmasligi lozim [Rahmatullayev Sh., 2006, 43].

Yangilik yoki eskilik bo‘yog‘i bor leksemalar lug‘at boyligini zamondosh qatlamini tashkil etadi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo‘ladi, chunki lug‘at boyligi doim o‘sib-o‘zgarib turadi shu sababli lug‘at boyligida zamondosh qatlam ham yashaydi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek tilidagi bir nechta so‘zlarning turli leksosememalari zamonaviylik nuqtayi nazaridan qiyoslanadi:

So‘z	An’anaviy leksosemema	Zamonaviy leksosemema	O‘zgarish turi
To‘lqin	Suv to‘lqini	To‘lqin (radio, mobil signal)	ko‘chma ma’no
Soyabon	Yog‘ingarchilikdan himoya	Havo hujumidan himoya soyaboni (raketa soyaboni)	semantik kengayish
Xat	Yozilgan qog‘oz	Elektron xat (e-mail, g-mail)	ma’no toraymagan, yangi kontekst
Devor	Bino devori	Elektron hujjatlar himoya devori (virtual to‘siq)	metafora

Zamondosh qatlamda o‘zaro biri ikkinchisining aksi bo‘lgan hodisalar mavjud: yangilik bo‘yog‘i bor leksemalar va eskilik bo‘yog‘i bor leksemalar. Shuningdek, yangilik bo‘yog‘i bor leksemalar – Neologizmlarni tashkil etib, tilga umuman mansub bo‘lish bilan birgalikda, yakka shaxs nutqiga tegishli bo‘lishi



ham mumkin. Birinchisi umumtil neologizimi, ikkinchisi individual neologizm deb yuritiladi [Sirojiddinov S., 2010, 55]. Leksimikada asosan umumtil neologizimi o'rganiladi. Individual neologizm ko'proq uslubga xos deya qaraladi. Shuni unutmash kerakki, har qanday yangi so'z avval individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinib nutqqa olib chiqilsa va tan olinsa, umumtil neologizimiga aylanadi, yakka nutq doirasiga chiqadi va leksema hisoblanadi. Agar ushbu talablarga javob bermasa individual nutq doirasida qolib ketadi. Shuni unutmash kerakki, har qanday yangi leksema neologizm bo'lavermaydi. Ya'ni, hozirgi kunda nutqimizda faol qo'llanayotgan leksemalarning hammasi ham neologizm bo'lavermaydi. Xususan, komyuter, internet, post, trend, marketing, grant, bonus kabilar o'zbek tiliga yaqinda kirib kelgan leksemalar hisoblansa-da, lekin bu leksemalarni neologizm deb bo'lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi kunda o'zbek tilida yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagi faol leksemaga aylangan. Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev "Hozirgi O'zbek adabiy tili" (2006) kitobida ta'kidlaganidek: "Neologizm – o'ta nisbiy tushuncha. Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizimiga ega bo'ladi, bir bosqichda ham neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm bo'lishi shart emas. Masalan, 30 – yillar nuqtayi nazaridan shpal, seyalka kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o'zbek tilida bular odatdagi, zamonaviy leksemaga aylangan; 20 – yillar nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan aeroplan, yo'qsil kabi leksemalar esa arxaizmga aylangan [Rahmatullayev Sh., 2006, 45]. Jumladan, Shoabdurahmonov Sh, Asqarov M, Azim Hojiyev, Rasulov I, Doniyorov X "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1980)



kitobida: “Yangilik bo‘yog‘i bor leksemalar neologizmlardir. Shuningdek, ular quydagi yo‘llar orqali vujudga keladi:

- a) leksema yasash orqali: kuzaytir (kuzga aylantir)
- b) leksemaning leksik ma‘no taraqqiyoti yo‘li bilan paydo bo‘ladi: bekat (transportlar to‘xtash joyi ma‘nosida)
- d) o‘zlashtirib olish orqali paydo bo‘ladi: detall so‘zi hozirda mayda-chuyda ma‘nosida bo‘lib daslab qism ma‘nosida ishlatilgan bo‘lib, hozir neologizmdan chiqqan [Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X., 1980, 96].

Leksosememalarning zamoniyligiga ta‘sir etuvchi omillar rang – barangdir. Ijtimoiy – siyosiy o‘zgarishlar, madaniy rivojlanish, ilmiy – texnik taraqqiyot hamda tilning ichki qonuniyatlari – bularning barchasi leksik tizimning yangilanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida boshqa tillardan kirib kelayotgan o‘zlashmalar ham zamoniylilik jarayonini jadallashtirmoqda.

Ma‘lumki, eskilik bo‘yog‘i bor til birligi arxaizm (yunoncha arshaios – qadimgi) deyiladi. Leksemalardagi turiga qarab leksik arxaizm deyiladi. Leksik arxaizm mohiyat nuqtayi nazaridan esa ikki guruhni tashkil etadi:

- 1) leksema yaxlitligicha arxaizm bo‘ladi. Buni arxaizm-leksema deb nomlash mumkin: ulus (xalq), aqcha (pul), qusur (nuqson) kabi;
- 2) leksema emas, balki so‘z semalaridan biri eskiradi, qo‘llanish doirasi torayadi: paxta, tola, momiq – ko‘p ma‘noli so‘z. Lekin shulardan momiq so‘zining hozirgi til uchun paxta ma‘nosi eskirgan, bunga ko‘ra uni arxaizm-semema deb nomlash mumkin [Rahmatullayev Sh., 2006, 78].

